

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CURRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

JILD 2 | SON 2

2026



SAYT: <https://Lingvoscience.uz>

LINGVOSCIENCES.UZ

2-jild 2-son 2026-yil

**LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**

**CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND
CULTURAL STUDIES**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИНГВИСТИКИ И
КУЛЬТУРОЛОГИИ**

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Niyazov Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi.
E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail, zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

“Lingvistika va madaniyatshunoslik fanlarining dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektr
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK FANLARINING
DOLZARB MASALALARI
2-jild, 2-son (fevral, 2026). - 25 bet.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARI

Abduraximov Abror

TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVNING DIDAKTIK
IMKONIYATLARI..... 5-10

Xudoyorov Shodiyor

OLIY TA'LIMDA "PLASTIK ANATOMIYA" FANINING O'QUV-USLUBIY ASOSLARI 11-16

Toshmatov Boboxon

O'ZBEKISTON TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGLAR USLUBIY TAYYORGARLIGINING
O'RNI 17-20

Jo'rayeva Sohibjamol, Hayitova Zilola

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI 21-24

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARI*Article / Original Paper***TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI****Abduraximov Abror Botir o'g'li**

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Email: abror.botir.uz@gmail.com

Tel: +998889012027

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitishda tarixiy va zamonaviy yondashuvlarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. An'anaviy badiiy ta'lim tajribasi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar integratsiyasi o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, estetik madaniyatini shakllantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, didaktika, pedagogika, texnologiya, an'anaviy, innovatsion, estetika, ijodkorlik, tafakkur.

DIDACTIC POSSIBILITIES OF HISTORICAL AND MODERN APPROACHES IN TEACHING FINE ARTS**Abduraximov Abror Botir o'g'li**

Master's Student, Gulistan State Pedagogical Institute

Annotation: This article examines the didactic possibilities of historical and modern approaches to teaching fine arts in general secondary schools. It substantiates that the integration of traditional artistic experience with innovative pedagogical technologies promotes the development of students' creative thinking and enhances the overall effectiveness of the educational process.

Keywords: fine arts, didactics, pedagogy, educational technologies, traditional approach, innovative approach, aesthetics, creativity, thinking.

DOI: <https://doi.org/10.47390/LS2025V2I2Y2026N01>**KIRISH (Introduction)**

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va estetik didini yuksaltirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Bu jarayonda tasviriy san'at fanining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy ta'lim nafaqat amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, balki shaxsning ma'naviy-estetik kamolotiga ham xizmat qiladi [1; 12-14-b.].

Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi uzoq tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, har bir davr badiiy ta'lim mazmuni va usullarining takomillashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatgan [1; 19-b.]. Xususan, Yevropa Uyg'onish davri rassomlari nafaqat san'at taraqqiyotiga, balki tasviriy savodxonlikni o'rgatishning ilmiy asoslarni shakllantirishga ham katta hissa qo'shganlar [4; 126-b.]. Leonardo da Vinci, Rafael va Albreht Dyurer kabi Uyg'onish davri rassomlari anatomik

aniqlik, perspektiva va kompozitsiya qonunlarini ilmiy asosda qo'llab, akademik tasvirlash maktabining shakllanishiga zamin yaratganlar. Leonardo kuzatish va tajribaning ahamiyatini asoslagan, Dyurer proporsiya va geometrik tuzilish orqali nazariy yondashuvni rivojlantirgan, Rafael esa kompozitsion mukammallik namunasini yaratgan. Shu bois Uyg'onish davri badiiy ta'limi zamonaviy didaktikaning muhim poydevori hisoblanadi [9; 98-b.].

XX asrga kelib, tasviriy san'at ta'limi milliy maktablar rivoji bilan yanada boyidi. O'zbek rassomlaridan O'rol Tansiqboev va Chingiz Ahmarov ijodida milliy rangtasvir an'analari, dekorativlik va obrazlilik ustuvor ahamiyat kasb etdi. Ularning asarlari o'quvchilarni milliy madaniy meros asosida tarbiyalash, estetik didni shakllantirish va badiiy tafakkurni rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi [6; 528-b.].

Igor Grabar va Arkady Plastov realistik tasvirlash an'alarini rivojlantirib, tabiatni kuzatish va hayotiylikni aks ettirishga asoslangan pedagogik tamoyillarni ilgari surganlar. Ularning tajribasi akademik tayyorgarlikni mustahkamlash va o'quvchilarda tasviriy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [8; 98-b.].

Zamonaviy davrda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi pedagog-olimlarning tadqiqotlari bilan rivojlanmoqda. R. Xasanov badiiy ta'limni tashkil etish va izchil metodik tizim orqali o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni shakllantirishni asoslab bergan [1; 226-b.]. R.Z. Xayrov esa ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish hamda rangtasvir orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhimligini ta'kidlab, nazariya va amaliyot uyg'unligi o'qituvchilar tayyorlash sifatiga ta'sir ko'rsatishini qayd etadi [2; 41-44-b.].

Shunday qilib, tarixiy badiiy maktab tajribasi va zamonaviy pedagogik konsepsiyalar tasviriy san'atni o'qitishda keng didaktik imkoniyatlarni yaratadi. Akademik an'alar mustahkam nazariy-amaliy asosni ta'minlasa, innovatsion yondashuvlar ta'limni ijodiy va interaktiv shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bois ularni uyg'unlashtirish umumta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (Literature Review and Methodology)

Tasviriy san'at ta'limi metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazkur fan o'quvchilarda estetik idrok, obrazli tafakkur va ijodiy faoliyatni rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishda yaratilgan metodik adabiyotlar an'anaviy badiiy ta'lim tajribasi hamda zamonaviy didaktik talablar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi [5; 6985-b.].

R. Xasanovning "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" asari badiiy ta'limni tashkil etishning muhim manbasi bo'lib, darslarni rejalashtirish, naturadan tasvirlash va kompozitsiyani o'rgatishning ilmiy asoslarini belgilaydi [1; 145-b.]. R.Z. Xayrov tadqiqotlarida esa ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, rangtasvir orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash masalalari yoritilgan [2; 42-45-b.]. "Dekorativ rangtasvir" qo'llanmasi o'quvchilarda estetik did va ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi [12; 182-b.]. Zolimkxanning tadqiqotlarida esa raqamlashtirish sharoitida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali vizual materiallardan samarali foydalanish, multimedia resurslari asosida darslarni tashkil etish hamda o'quvchilarning axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi [6; 530-b.]. Bu yondashuv zamonaviy ta'lim muhitida didaktik imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan tadqiqotlarda tasviriy san'at ta'limi o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy muammolarni hal etish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam berishi qayd etilgan [5]. Demak, an'anaviy akademik tayyorgarlik va innovatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'atni o'qitish metodikasi izchil rivojlanib, an'anaviy badiiy maktab tamoyillaridan kompetensiyaga asoslangan va texnologik yondashuvlarga bosqichma-bosqich o'tmoqda [5; 6]. Biroq tarixiy tajriba va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash orqali didaktik imkoniyatlarni tizimli ravishda tadqiq etish hali ham dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda [2; 44-b.].

Mazkur tadqiqotda tizimlilik va ilmiylik tamoyillariga asoslangan holda nazariy tahlil, qiyosiy-pedagogik o'rganish, pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov hamda natijalarni statistik va mazmuniy jihatdan umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va integrativ didaktik tamoyillarga tayandi. Shuningdek, tarixiylik va zamonaviylik uyg'unligi asosida badiiy ta'lim mazmunini takomillashtirish nazarda tutildi.

Tadqiqot jarayoni Guliston davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at" ta'lim yo'nalishi talabalarining 4+2 shaklidagi pedagogik amaliyoti doirasida amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlari 2025-2026 o'quv yilining birinchi va ikkinchi choraklarida umumta'lim maktablarining 5-, 6- va 7-sinflari kesimida tashkil etildi hamda unda jami 155 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

Tadqiqot davomida natyurmort, portret va manzara janrlariga oid mavzular asosida darslar rejalashtirildi. Nazorat va tajriba guruhlar shakllantirilib, tajriba guruhlarida tarixiy badiiy an'analarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan metodik yondashuv joriy etildi. Darslarda interaktiv usullar, amaliy topshiriqlar va ijodiy mashqlardan foydalanilib, o'quvchilarning tasviriy ko'nikmalari, ijodiy faolligi va estetik idrokidagi o'zgarishlar muntazam monitoring qilindi. Olingan natijalar tarixiy va zamonaviy yondashuvlarni integratsiyalash tasviriy san'at ta'limi samaradorligini oshirishda muhim pedagogik omil ekanini tasdiqladi.

MUHOKAMA (Discussion)

Tarixiy yondashuv tasviriy san'at ta'limida akademik chizish, naturadan tasvirlash, perspektiva va kompozitsiya qoidalarini izchil hamda bosqichma-bosqich o'rgatishga yo'naltirilgan. Bunday metodik tizim o'quvchilarda texnik mahorat, tasviriy savodxonlik va badiiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi [1; 34-b.]. Shu bilan birga, akademik tayyorgarlik o'quvchilarning vizual idrokini rivojlantirib, ularda shakl va rang munosabatlarini to'g'ri anglashga zamin yaratadi [12; 20-b.]. Biroq ta'lim jarayonini faqat an'anaviy usullar asosida tashkil etish ayrim hollarda o'quvchilarning mustaqil ijodiy izlanishlarini cheklashi mumkin, shu bois individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi [13].

Zamonaviy didaktika esa ta'limni o'quvchi faolligiga tayangan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, raqamli va vizual texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirib, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi [8]. Ta'limni raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'quv jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qilishi ta'kidlangan [6; 531-b.], [7]. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda samarali omil sifatida baholanadi [5; 6986-b.].

Milliy qadriyatlarni san'at vositasida o'rgatish o'quvchilarda madaniy merosga hurmat, milliy o'zlikni anglash va estetik munosabatni mustahkamlaydi [9; 99-101-b.]. Rassomlar ijodi bilan tanishtirish orqali badiiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari ham alohida qayd etilgan [10]. Badiiy obrazlar va adabiy qahramonlarning vizual talqini esa o'quvchilarning emotsional-estetik tajribasini boyitadi. Shu bilan birga, tasviriy san'at vositasida tarixiy obidalarining badiiy talqinini o'rganish o'quvchilarning madaniy qarashlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida rasm va rangtasvirning o'rni, shuningdek, akvarel texnikasi orqali kasbiy mahoratini takomillashtirish masalalari ham ilmiy jihatdan asoslangan [2; 42-b.], [4]. Turli fanlar kesimida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim mazmunini maqsadli tashkil etish zarurligini ko'rsatadi [15; 175-b.].

Demak, tarixiy va zamonaviy yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirish tasviriy san'at ta'limida didaktik imkoniyatlarni kengaytirib, o'quvchilarning ijodiy, estetik va intellektual rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan, mazkur ikki yondashuvni qarama-qarshi qo'yish emas, balki ularni o'zaro uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki akademik asos mustahkam bo'lgan sharoitda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va amaliy faolligini yanada rivojlantiradi. Demak, tarixiy va zamonaviy yondashuvlarni integratsiyalash tasviriy san'at ta'limida didaktik imkoniyatlarni kengaytirib, ta'lim mazmuni va sifati oshishiga xizmat qiladi.

NATIJALAR (Results)

Tajriba-sinov ishlari natijalari tasviriy san'atni o'qitishda an'anaviy va innovatsion metodlarni uyg'unlashtirish yuqori pedagogik samaradorlikka erishish imkonini berganini ko'rsatdi. Xususan, 2025-2026 o'quv yilining birinchi yarim yilligi davomida o'quvchilarning badiiy kompetensiyalarida sezilarli o'sish dinamikasi kuzatildi. Yil boshida o'tkazilgan dastlabki diagnostika natijalariga nisbatan yarim yillik yakunida o'quvchilarning tasviriy ko'nikmalari, kompozitsion fikrlashi va rang bilan ishlash malakasi ancha rivojlangani aniqlandi.

Dars jarayonida vizual va raqamli vositalardan foydalanish mashg'ulotlarning mazmunan boyishiga va qiziqarli tashkil etilishiga xizmat qildi. Bu esa o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi ortishiga, darslarda faol ishtirok etishiga hamda ijodiy topshiriqlarni bajarishga nisbatan ijobiy motivatsiya shakllanishiga olib keldi [6; 8]. Ayniqsa, natyurmort, portret va manzara janrlariga oid amaliy ishlar jarayonida o'quvchilar mustaqil yechim topishga intildi, bu esa ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini mustahkamladi [5].

Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar ta'lim sifatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Nazorat guruhlariga nisbatan tajriba guruhlarida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi yuqoriroq ekanini kuzatildi. Bu holat tarixiy badiiy an'analarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish samarali didaktik strategiya ekanini tasdiqlaydi [2; 4].

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari o'qituvchining metodik tayyorgarligi ta'lim samaradorligini belgilaydigan asosiy omillardan biri ekanini ko'rsatdi. Metodik jihatdan puxta rejalashtirilgan darslar, maqsadga yo'naltirilgan topshiriqlar va differensial yondashuv o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Umuman olganda, tajriba natijalari tasviriy san'at ta'limida innovatsion va an'anaviy yondashuvlarning uyg'unligi o'quvchilarning badiiy-estetik rivojlanishini ta'minlashda muhim pedagogik shart ekanini namoyon etdi.

XULOSA (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'atni o'qitishda tarixiy va zamonaviy yondashuvlarning didaktik imkoniyatlari keng hamda ko'p qirrali bo'lib, ularni integratsiyalash o'quvchilarning badiiy-estetik madaniyatini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi [2; 5]. Akademik an'analar o'quvchilarda mustahkam nazariy va amaliy asosni ta'minlash [1; 25-26-b.], zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini faol, interaktiv va o'quvchiga yo'naltirilgan muhitga aylantiradi [6;8]. Tajriba-sinov natijalari mazkur yondashuvlarni uyg'unlashtirish umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi sifatini oshirishga xizmat qilishini tasdiqladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz tavsiyamiz shundan iborat: tasviriy san'at ta'limi samaradorligini oshirish uchun an'anaviy akademik mashqlarni zamonaviy interaktiv va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, dars mazmunini ijodiy loyihalar va amaliy topshiriqlar asosida boyitish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, milliy badiiy merosni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda o'qituvchilarning metodik kompetensiyalarini izchil rivojlantirish ta'lim sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mazkur tavsiyalarni amaliyotga joriy etish tasviriy san'at ta'limini mazmunan boyitishga, o'quvchilarning intellektual va estetik rivojlanishini ta'minlashga hamda maktab ta'limini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Хасанов Р. Мактабда тасвирий санъатни ўқитиш методикаси. – Т.: Фан. 2004.
2. Khayrov, R. Z. U. (2025). The Role of Drawing and Painting in the Training of Future Teachers of Fine Arts. International Journal of Formal Education, 4(7), 41–48. Retrieved from <https://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/5420>
3. Pardaboevich, Jumaboyev Nabi. "THE APPLICATION OF EASTERN PHILOSOPHICAL AESTHETIC CONCEPTS IN ARTISTIC EDUCATION AND THEIR INTERPRETATION IN PEDAGOGICAL RESEARCH." PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI 14.01 (2025): 218-222
4. Хайров, Р. (2025). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА ЧЕРЕЗ АКВАРЕЛЬНУЮ ЖИВОПИСЬ. Предпринимательства и педагогика, 4(2), 126-136.
5. Berikbaev A. A. Development of competence skills of art education students //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 4. – С. 6984-6988.
6. Zolimkhan, K. (2024). Training Future Fine Arts Teachers In The Context Of Digitalization. American Journal of Social and Humanitarian Research, 5(12), 528–537. Retrieved from <https://www.globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/3149>
7. Imomov FozilShakarbek o'g'li. (2025, октябрь 24). MUHANDISLIK TA'LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17433530>.
8. Rasimovna M. K. MAKTABDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O 'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2025. – Т. 3. – №. 33. – С. 281-285.
9. Khayrova, M. R. (2025). TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA MILLIY O 'ZLIK VA QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH. Innovative Development in Educational Activities, 4(1), 98-104.

10. Alimjanovna Y. S. The Important Significance of Introducing Students to Artists' Creations in Circle Classes (Ural Tansikbaev) //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). –2024. –Т. 3. –No. 1. –С. 9-9
11. Хайрова Н. Р. СВЕТ И ТЕНЬ КНИГ: КАК ЛИТЕРАТУРНЫЕ ПЕРСОНАЖИ ОЖИВАЮТ В НАШИХ СЕРДЦАХ //НАУЧНЫЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ «МАТРИЦА НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ» ISSN 2541-8084. – С. 293.
12. R.Z.Xayrov, Dekorativ rangtasvir. Guliston, 2022.
13. Хайров Р. З. Султанов АА ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД К УЧЕНИКАМ НА УРОКАХ ИСКУССТВА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА //Символ науки. – 2020. – №. 5.
14. Xudoyorov Shodiyor Ziyodullo o'g'li,/Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li. (2025). TASVIRIY SAN'AT VOSITALARIDA SIRDARYO VILOYATI OBIDALARINING BADIY TALQINI VA ESTETIK IFODASI. IQRO INDEXING, 18(01), 1053-1057.
<https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/16469>
15. SabitovichI. O. AYLANISH SIRTNING UMUMIY VAZIYATDAGI TEKISLIK BILAN KESISHISHIGA DOIR MASALALARNING MAQSADLI BERILISHI //CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY. –2025. –Т. 1. –No. 5. –С. 173-181.

LINGVOSCIENCES.UZ

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

2-jild 2-son 2026-yil

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).